

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

JIZZAX POLITEKNIKA INSTITUTI

AZIMOVA SITORA YUSUFJONOVNA

**TALABALARNING MA'NAViy-AXLOQiy SIFATLARINI EKSPLOTSIT
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI**
(texnika oliy ta'lim muassasasi misolida)

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) ILMIY DARAJASINI
OLISH UCHUN YOZILGAN DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Chirchiq - 2023

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философских наук
(PhD) по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doktor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Azimova Sitora Yusufjonovna

Talabalarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini eksplitsit rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari (texnika oliy ta'lim muassasasi misolida) 5

Азимова Ситора Юсуфжоновна

Педагогические условия для яркого развития духовно-нравственных качеств учащихся (например техническое ВУЗов) 23

Azimova Sitora Yusufzhonovna

Pedagogical conditions for the explicit development of spiritual and moral qualities of students (on the example of technical universities) 42

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 46

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

JIZZAX POLITEXNIKA INSTITUTI

AZIMOVA SITORA YUSUFJONOVNA

**TALABALARNING MA'NAViy-AXLOQiy SIFATLARINI EKSPLOTSIT
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI**
(texnika oliy ta'lim muassasasi misolida)

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) ILMIY DARAJASINI
OLISH UCHUN YOZILGAN DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Chirchiq - 2023

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PHD/Ped3325 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Jizzax politexnika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (cspi.uz.ilmiy-kengash) va "Ziyonet" axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abdullayeva Shahzoda Abdullayevna
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Botirova Shaxlo Isamiddinovna
pedagogika fanlari doktori, professor
Olimov Shirinboy Sharofovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi muassasa:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «___» ___kuni soat ___dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy). Tel.: (99870) 712-27-55; faks: (99870) 712-45-41; e-mail: chspi-kengash@umail.uz.).

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin. (___ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel.: (99870) 712-27-55; faks: (99870) 712-45-41.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «___» ___kuni tarqatildi.

(2023-yil «___» ___dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi)

U.N. Xodjamqulov,
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, p.f.d. (DSc), dotsent

F.T. Rajabov,
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi, g.f.f.d. (PhD), dotsent

Sh. Botirova,
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonning mafkuraviy mental eksplikatsiyasida aholining turli qatlamlari manfaatlarini himoya qiluvchi ma'naviy-axloqiy sifatlarning eksplitsit shakllanishini tadqiq qilish tendensiyalari kuzatilmoqda. Jahonda kuchayib borayotgan turli mafkuraviy xavf-xatar va ziddiyatlar, destruktiv g'oyalar xuruji, el-yurt tinchligi va osoyishtaligiga tahdidlar mas'ul davlat tuzilmalariga o'z faoliyatini "Barcha sa'y-harakatlar inson qadri uchun", degan ustuvor g'oya asosida yanada birlashtirish vazifasini yuklamogda. Yer kurrasining mafkuraviy maydonlaridagi siyosiy raqobati yadro poligonlaridan ham shiddatliroq tus olayotganligidan kelib chiqib, oliy ta'lim muassasalari talabalarining ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirish, ularda qadriyatli munosabatlar faoliyatini shakllantirish, yoshlar ongiga yuksak ma'naviy fazilatlarni singdirishga qaratilgan pedagogik jarayonlarni tashkil qilishga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Jahonda ta'lim muassasalari tahsil oluvchilariga ta'sir etayotgan ma'naviy xatarlarning oldini olish, ular orasida transseksual, gender tenglik, kriminal xatti-harakatlar, huquqbuzarliklar va jinoyatchilikning sodir bo'lishini kamaytirish, gumanizm, tolerantlik, ijtimoiy intellektni rivojlantirish, o'zaro munosabatda hurmat, kengfe'llik, kechirimlilik, sabr, oqibat tuyg'ularini kuchaytirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'tkazilmoqda. Shu bilan birga, jamiyat manfaatlarini bilan bog'liq yondashuvlarni o'rganish, talabalar o'rtasida empatiya, ma'naviy altruistik qarashlarni kengaytirish, jamiyat tomonidan belgilangan ma'naviy-axloqiy normalarga rioya qilish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ham tadqiqotlar olib borilmoqda.

Mamlakatimizda yoshlarni ijtimoiy munosabatlar tomon yo'llash natijasida ularning shaxs va subyekt sifatida shakllanishi, aqliy rivojlanishi, tarbiyalanganlik darajasining o'sishi, jamiyat tomonidan belgilangan xulq normalariga rioya qilishi, tabiiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarishi, ijtimoiy tajriba orttirish imkoniyatlarini kengaytirishning me'yoriy omillari yaratildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonida yangi mazmundagi uzluksiz ta'lim tizimini yaratishning huquqiy-me'yoriy asoslarini modernizatsiyalash ustuvor yo'nalish sifatida belgilandi.¹ Natijada milliy mental xarakterimizga mos keladigan tolerantlik, bag'rikenglik, yuksak axloqiy dunyoqarashga ega bo'lgan respublikamiz yoshlarini ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy axloqiy fazilatlar, empatik g'amxo'rlik bilan bog'liq ma'naviy tuyg'ular, ruhiy altruistik yo'nalishdagi fazilatlarni namoyon qiluvchi psixologik-pedagogik tizimni takomillashtirishga katta imkoniyatlar yaratildi. Bo'lajak mutaxassis sifatida talabalar har qanday vaziyatda tanqidiy fikrlash va muammolar yechimini topish, o'zaro hamkorlik asosida yetakchilik qobiliyatini

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni // <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>.

namoyon etish, innovatsion bilimlarga chanqoqlik va vaziyatga moslashuvchanlik, tadbirkorlik va ishbilarmonlik, insonlar bilan samarali muloqotni tashkil etish, ishlab chiqarish jarayonida ma'lumotlarni baholash va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan tizimni ishlab chiqishga ehtiyoj sezilmoqda. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun oliy ta'lim muassasalari tahsil oluvchilarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirish strategiyasini o'quv jarayoniga tatbiq etish dolzarb muammo hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5618-son, 2020-yil 22-iyundagi "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6012-son Farmonlari, shuningdek, boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan dolzarb vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" mavzusida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil yakunlari va 2017-yil istiqbollari bag'ishlangan majlisdagi nutqi, "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz", "Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz" kabi asarlari va Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-fevraldagi "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash to'g'risida"gi 140-sonli qarori asosida shakllantirilgan "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash" Konsepsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-27-son Farmoni tadqiqot uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Jamiyatimizda milliy istiqloq ma'naviyatini tiklash va rivojlantirish, milliy o'zlikni anglash, Vatanga sodiqlik tuyg'ularini shakllantirish, milliy til va madaniyatni taraqqiy ettirish muammolarining yechimini topish masalalari respublikamiz olimlari: M.Abdullayev, N.Jo'rayev, A.Ibrohimov, N.Komilov, M.Mahmudov, Q.Nazarov, M.Sharifxo'jayevlarning ilmiy izlanishlarida o'z ifodasini topgan bo'lsa, milliy ma'naviyatimizga xos bo'lgan his-tuyg'ularni, g'ururni, vatanparvarlikni yosh avlodda shakllantirish muammolarining psixologik va pedagogik jihatlarini Sh.Abdullayeva, V.Karimova, O.Musurmonova,

S.Nosirxo‘jayev, N.Ortiqov, M.Quronov, Sh.Qurbonov, Q.Qurbonboyev, E.G‘oziyevlar tadqiq etishgan.

Fuqarolarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish masalasida o‘ziga xosliklarni aniqlash va pedagogik metodlardan foydalanish muammolari Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) olimlari: A.N.Virshikov, M.V.Elizarova, A.Y.Konarjevskiy, L.I.Malenkova, S.V.Matveyeva, A.V.Merenkov, F.E.Popov, V.I.Polyakova, M.M.Potashnik, V.P.Savenkolar tomonidan o‘rganilgan.

Yoshlarda daxldorlik tuyg‘ularini shakllantirish va rivojlantirish omillarining psixologik jihatlari xorij olimlari: Hartmann Ingo, Vincent Greney, Thomas Kellaghan, John Morgan, Wilcoxon Frederik, Morgan Georgelar tomonidan tadqiq qilingan.

Jamiyatning ma‘naviy mental eksplikatsiyasida oliy ta‘lim muassasalari talabalarida ma‘naviy-axloqiy sifatlarning eksplitsit rivojlanishini ta‘minlaydigan didaktik jarayonlarni tizimlashtirishning pedagogik shart-sharoitlari mazmun-mohiyatini zamonaviy sharoitda tadqiq qilish alohida tadqiqot predmeti sifatida tanlanmaganini ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Tadqiqot ishi Jizzax politexnika instituti Ilmiy kengashi tomonidan 2019-yilda tasdiqlangan “Talabalarining ma‘naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirish” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: oliy ta‘lim muassasalari talabalarida ma‘naviy-axloqiy sifatlarni eksplitsit rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

“ma‘naviy mental eksplikatsiya”, “ma‘naviy-axloqiy sifatlarni”, “eksplitsit rivojlanish” kabi pedagogik kategoriyalarning ijtimoiy-pedagogik mazmunini aniqlashtirish;

talabalarda ma‘naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirishning yetakchi determinantlarini pedagogik shart-sharoitlar, qadriyatli motivlarni aniqlashtirishga ustuvorlik berish asosida takomillashtirish;

talabalarda mental reprezentativ paradigma orqali ma‘naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirish modelini takomillashtirish;

talabalarda ma‘naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirishning bosqichlarini takomillashtirish;

mental reprezentativ paradigma orqali ta‘lim muassasalari uchun talabalarda ma‘naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirishda tashkil qilinadigan tarbiyaviy va didaktik jarayonlarni tizimlashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida tahsil olayotgan talabalarda ma‘naviy-axloqiy sifatlarni eksplitsit rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish jarayoni belgilanib, tadqiqotda jami 739 nafar respondent (655 nafar talabalar, 51 nafar professor-o‘qituvchilar, 14 nafar yoshlar bilan ishlash bo‘yicha dekan o‘rinbosarlari va 19 nafar tyutorlar)ni tashkil etadi.

Tadqiqotning predmetini talabalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni eksplitsit rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish mazmuni, shakli, yo'llari, usul, vosita, metodlari tashkil etdi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida o'quv-ilmiy manbalar, analitik obzor kabi nazariy metodlardan; kvalimetriya, pedagogik diagnostika, tizimli kuzatish, suhbat, intervyu, so'rovnomalalar, testologiya, prognoz, tajriba-sinov, matematik-statistik tahlil kabi empirik metodlardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“ma'naviy mental eksplikatsiya”, “ma'naviy-axloqiy sifatlarni”, “eksplitsit rivojlanish” kabi pedagogik kategoriyalarning ijtimoiy-pedagogik mazmuni shaxs mental tafakkuriga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan determinantalarni talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning konseptual asoslariga malakaviy talablarni inobatga olgan holda singdirish asosida takomillashtirilgan;

talabalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirishning yetakchi determinantlari empatiyaga moyillik, altruistlik, mafkuraviy tahdidlardan himoyalash kabi komponentlarni pedagogik shart-sharoitlar va qadriyatli motivlarni aniqlashtirishga maqsadli yo'naltirish hamda tarbiyaviy ishlar bilan samaradorlik omillariga ko'ra uyg'unlashtirish asosida aniqlashtirilgan;

talabalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirish modeli yoshlarning ma'naviy mental implimentatsiyasiga asoslangan testologiya ko'rsatkichlari (indikatorlari) tarkibini mental reprezentativ paradigma hamda bilish, e'tiqod, refleksiya, monitoring va stimul kabi axloqiy sifat bosqichlari orqali kengaytirish asosida takomillashtirilgan;

ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirishning individual-tipologik tavsifnomasi talabalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirishning empatiyaga moyillik, qadriyatli natijaviylik, yuksak axloqiy normalarga intilish kabi eksplitsiv rivojlanish mezonlarini reproduktiv, produktiv va kreativ baholash asosida ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilarda o'z aksini topdi:

konnotativ, empirik, tarixiy, madaniyatshunoslik, ilmiy dunyoqarash asnosida hissiy fonli aspektlar bo'yicha talabalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirish modeli takomillashtirildi;

talabalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirishning individual-psixologik xususiyatlarini tahlil qilish va ularning tipologik tavsifnomasini tuzishga oid testologiya ko'rsatkichlari (indikatorlari) tarkibini kengaytirish (tushunchalarning shakllanganligi, faoliyatli-natijaviy elementlarni kiritish) asosida takomillashtirildi;

talabalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirishning ta'lim muassasalari uchun tashkil qilinadigan pedagogik jarayonlarni tizimlashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi muammoga oid falsafiy, sotsiologik, pedagogik va psixologik yondashuvlar va amalga oshirilgan usullar, foydalanilgan nazariy va amaliy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, analitik va eksperimental ishlanmalarning samaradorligi matematik statistika metodlari

yordamida asoslangani hamda olingan natijalar vakolatli muassasalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, talabalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirish modeli "ma'naviy mental eksplikatsiya", "ma'naviy-axloqiy sifatlar", "implitsit rivojlanish" kabi pedagogik kategoriyalarning oliy ta'lim muassasalaridagi axborot soatlari, auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarni innovatsion yondashuv asosida tashkil etilishi, o'quv reja va dasturlarni ijtimoiy-pedagogik ahamiyatga molik nazariy materiallar bilan takomillashtirishga oid yangi yondashuv, g'oya, tavsiyalar bilan boyitilganligi, talabalarda mental reprezentativ paradigma orqali ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirishning tarbiyaviy jarayoni zamonaviy qarashlar asosida takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, talabalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirishning yetakchi determinantlari "Pedagogik diagnostika" o'quv kursi mazmuniga singdirilgan va auditoriya hamda auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar mazmuni boyitilgan, metodlar va vositalar tizimlashtirilgan. Talabalarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirish darajasini aniqlovchi diagnostika testlaridan ularni kelgusidagi kasbiy faoliyatga tayyorlashda va tarbiya mexanizmlarini takomillashtirishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni eksplitsit rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish yuzasidan olingan natijalar asosida:

shaxs mental tafakkuriga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan determinantlarni oliy ta'lim muassasalari talabalarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning konseptual asoslariga malakaviy talablarni inobatga olgan holda singdirish asosida takomillashtirilgan "ma'naviy mental eksplikatsiya", "ma'naviy-axloqiy sifatlar", "eksplitsit rivojlanish" kabi pedagogik kategoriyalarning ijtimoiy-pedagogik mazmuni bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyalardan Jizzax politexnika instituti tomonidan bajarilgan AI 1/4 raqamli "Akademik innovatsiyalar fondi" grantining "O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish markazi va elektronikadan qo'shma o'quv laboratoriya yaratish" nomli amaliy loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 25-yanvardagi 02-07-218/04-sonli dalolatnomasi; Jizzax politexnika institutining 2022-yil 28-sentyabrdagi 02-2194-2186-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, OTM talabalarining bakalavriat yo'nalishidagi o'quv kurslari mazmuni, tizimli-struktur tahlilga asoslangan samarali hamkorlikdagi pedagogik jarayonlarni takomillashtirishga xizmat qilgan;

empatiyaga moyillik, altruistlik, mafkuraviy tahdidlardan himoyalaniish kabi komponentlarni pedagogik shart-sharoitlar va qadriyatli motivlarni aniqlashtirishga yo'naltirish hamda tarbiyaviy ishlar bilan samaradorlik omillariga ko'ra uyg'unlashtirish asosida aniqlashtirilgan talabalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirishning yetakchi determinantlari bo'yicha taklif va tavsiyalardan T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filiali tomonidan bajarilgan A1-XT-0-92997 raqamli "Yoshlarni

umuminsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar uygʻunligi asosida maʼnaviy-axloqiy tarbiyalash muammolari” mavzusidagi amaliy loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (T.N.Qori-Niyoziy nomidagi Oʻzbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpogʻiston filialining 2023-yil 26-yanvardagi 59-sonli maʼlumotnomasi). Natijada, talabalarning maʼnaviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirish darajasini aniqlovchi diagnostika testlari ishlab chiqilib, oliy taʼlim muassasalarining pedagogik jarayonlariga tatbiq etilgan va tarbiya mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qilgan;

yoshlarning maʼnaviy mental implimentatsiyasiga asoslangan testologiya koʻrsatkichlari (indikatorlari) tarkibini mental reprezentativ paradigma hamda bilish, eʼtiqod, refleksiya, monitoring va stimulyatsiya kabi axloqiy sifat bosqichlari orqali kengaytirish asosida takomillashtirilgan talabalarda maʼnaviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirish modeli, talabalarda maʼnaviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirishning empatiyaga moyillik, qadriyatli natijaviylik, yuksak axloqiy normalarga intilish kabi eksplitsiv rivojlanish mezonlarini reproduktiv, produktiv va kreativ baholash mezonlariga koʻra didaktik tizimlashtirish asosida ishlab chiqilgan maʼnaviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirishning individual-tipologik tavsifnomasi boʻyicha takliflardan T.N.Qori-Niyoziy nomidagi Oʻzbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpogʻiston filiali tomonidan bajarilgan A1-XT-0-92997 raqamli “Yoshlarni umuminsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar uygʻunligi asosida maʼnaviy-axloqiy tarbiyalash muammolari” mavzusidagi amaliy loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (T.N.Qori-Niyoziy nomidagi Oʻzbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpogʻiston filialining 2023-yil 26-yanvardagi 59-sonli maʼlumotnomasi). Natijada, talabalarda maʼnaviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirish koʻrsatkichlarini taʼlim-tarbiya jarayoniga faoliyatli-natijaviy elementlar orqali kiritish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4ta xalqaro va 12ta respublika anjumanlarida aprobatsiyadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 20 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, 1 ta risola, 1 ta oʻquv qoʻllanma, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini eʼlon qilish uchun tavsiya etilgan nashrlarda 6ta maqola, jumladan, xorijiy jurnallarda 2 ta maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, umumiy xulosalar, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati va ilovalardan iborat boʻlib, umumiy hajmi 149 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, ishning Oʻzbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarining ustuvor yoʻnalishlariga bogʻliqligi koʻrsatilgan, shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining

amaliyotga joriy etilganligi, e'lon qilinganligi, dissertatsiya ishining tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning “**Oliy ta'lim muassasalari talabalarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning konseptual asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida yoshlarni yuksak ma'naviy axloqli, insonparvarlik fazilatlariga ega, o'z kasbini chuqur biladigan mutaxassis sifatida tarbiyalash muammolarini ilmiy-pedagogik jihatdan tadqiq qilish masalalari yoritilgan. Shuningdek, ushbu bobda talabalarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirish va ularda milliy g'urur tuyg'usini yangi bosqichga ko'tarish obyektiv ehtiyojga aylanganligi, ushbu obyektiv ehtiyoj insonning jamiyatda mavjud bo'lgan ko'p qirrali munosabatlar, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy shart-sharoitlar asosida, turli ijtimoiy muhit ta'sirida shakllanadigan inson ma'naviyati definitsiyasini mafkuraviy mental eksplikatsiyada tadqiq etishga undashi xususidagi g'oyalar ilgari surilgan.

Eksplikatsiya – (lot.: *explicatio* – *tushuntirish, joylashtirish*) – pedagogik obyekt yoki hodisalar mohiyatini turli xil boshqa jarayonlar va hodisalar orqali tarqatish (oshkor qilish) usuli. Mafkuraviy mental eksplikatsiya muayyan mafkuraviy qarashlar yaxlitligining mazmunini yoritishga xizmat qiladi.

Talabalarda ma'naviy axloqiy sifatlarni shakllantirish mamlakat ilm-fani oldidagi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Milliy madaniyatning hozirgi rivojlanish bosqichida, talabalarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini eksplitsit va esplitsit rivojlantirish texnologiyasini, ilmiy asoslangan me'yoriy va motivatsion talablarga muvofiq tartibga solish, ijobiy natijalarga olib keladi.

Implisit – (lot.: *implicitus* – ichida joylashgan, nazarda tutilgan, tashqi ko'rinishda namoyon bo'lmagan, bevosita ifodalanmagan; yashirin, maxfiy) – yashirin, yashirin o'rganish – bu uning predmeti nima ekanligini tushunmasdan sodir bo'ladigan o'rganish. Bunday o'rganish o'zlashtirilgan bilimlarga nisbatan predmetning maqsadi va xabardorligidan qat'iy nazar sodir bo'ladi.

Eksplitsit – (lot.: *explicitus* – joylashtirish; oshkor qilish, izohlash, tushuntirish) – tashqi ko'rinishda namoyon bo'ladigan, ma'lum maqsadlarga yo'naltirilgan hodisaning predmetini aniq, tushunib sodir bo'ladigan o'rganish, bilim o'zlashtirish. Shu ma'noda, talabalarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini eksplitsit va eksplitsit rivojlantirish xalq ma'naviy-axloqiy madaniyati implementatsiyasida yuksaltirib borish mamlakatimizda mustaqillikni mustahkamlash, huquqiy demokratik davlatni qurish va fuqarolik jamiyati asoslarini rivojlantirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Implementatsiya – jarayon tuzilmasining maqsad va mazmuniga qat'iy rioya qilish asosida voqea, hodisalarda majburiyatlarning amalda bajarilishi, shuningdek, axloqiy normalarni milliy pedagogik tizimga kiritishning o'ziga xos usuli. Binobarin, insonning ma'naviy fazilatlarini, dunyoqarashi, mafkuraviy e'tiqodi bilan bog'lanib, muayyan tartibga tushadi va ularning bevosita ta'siri natijasida jamiyat oldidagi vazifalarni anglashga yordam beradi.

Yuksak ma'naviyat va axloqiy barkamollik har qanday xalq, har qanday davlat rivojining bosh mezonini bo'lib xizmat qilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev: “Yangi O'zbekiston orzusi, bugungi kunlarimizga nisbatan

aytganda, hozirgi davrning taqozosi, uning asl qiyofasini, harakatlantiruvchi kuchlari va omillarini belgilaydigan g‘oyaviy-ma‘naviy asos, xalqimizga xos yaratuvchanlik shijoati va keng ko‘lamli islohotlarimizning yaqqol ifodasidir”, – deb ta‘kidlashlari bejiz emas.

Bo‘lajak mutaxassis sifatida talabalar har qanday vaziyatda tanqidiy fikrlash va muammolar yechimini topishni, o‘zaro hamkorlik asosida yetakchilik qobiliyatini namoyon etishni, zamonaviy bilimlarga chanqoqlikni va vaziyatga moslashuvchanlikni, tadbirkorlik va ishbilarmonlikni, insonlar bilan samarali muloqatni tashkil etishni, ishlab chiqarish jarayonida ma‘lumotlarni baholashni va tahlil qilishni, yangiliklarga qiziquvchanligini va tasavvur hosil qilish ko‘nikmalarini egallashlarini ustuvor vazifalar qilib qo‘yilgan.

Bobda Sharq allomalarining pedagogik qarashlarida ma‘naviy madaniyat bilan bog‘liq axloqiy tushunchalarning talqin qilinishi masalalari o‘z ifodasini topgan.

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ma‘naviy-axloqiy tarbiya bilan bog‘liqligi, aloqadorligi masalasi ko‘hna tarixiy yodgorliklar, xalq og‘zaki ijodi, “Avesto”, “Qur‘oni Karim”da, o‘tmish ajdodlarimizning falsafiy, badiiy asarlarida, Uyg‘onish davri, jadid tarbiyashunoslarining ta‘limotlarida, Respublika Prezidentining risolalarida, o‘zbek faylasuflari, sotsiologlari, pedagoglarining kitoblarida to‘laqonli ifodalaniib, barkamol avlodni ma‘naviy-axloqiy kamolga yetkazishda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot omillarini inobatga olish, ayni paytda jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy yuksaltirishda barkamol yoshlarni ma‘naviy-axloqiy jihatdan voyaga etkazish zarurligi to‘g‘risida qimmatli fikrlar bayon etilgan.

Davlatimiz rahbari tomonidan ijtimoiy, ma‘naviy-ma‘rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbus, Taraqqiyot strategiyasida inson qadrini ulug‘lashga yo‘naltirilgan ijtimoiy himoya siyosati bo‘yicha belgilangan vazifalar doirasida: yagona davlat siyosatini amalga oshirish; ijtimoiy sug‘urta tizimini yaratish, kam ta‘minlangan oilalarga ijtimoiy yordam va xizmatlarni ijtimoiy shartnoma asosida taqdim etish; “Ijtimoiy himoya yagona reestri” axborot tizimida yordamga muhtoj ayollar, yoshlar va nogironligi bo‘lgan shaxslar bo‘yicha alohida ma‘lumotlar bazasini yaratish, jumladan, “Temir daftar”, “Yoshlar daftari” va “Ayollar daftari”ni “Ijtimoiy himoya yagona reestri” bilan integratsiya qilish kabilarga alohida e‘tibor qaratilgan.

Ushbu bobda talabalarda ma‘naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirish determinantalari, bosqichlari, printsiplari, amaliyotdagi holati o‘rganilganligi va jahon pedagogikasidagi metodikalarga tayanib, o‘quv rejaga ko‘ra, didaktik tizimlarda talabalarda ma‘naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirishga mo‘ljallangan determinantalalar (1-jadval) tavsifi turkumlanganligi haqida ma‘lumot berilgan.

1-jadval

Shaxs mental tafakkuriga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadigan determinantalalar

Determinantlar	Qisqacha tavsifi	Qaysi maqsadga qaratilgan
Ma‘naviy boyliklar	Inson tafakkuri va aql-zakovati bilan yaratilgan ma‘naviy meros.	Taraqqiy etish, jamiyat va har bir fuqaro gullab-yashnashiga erishish.

Ma'naviy burch	Insonga xos bo'lgan yuksak ma'naviy fazilat.	Burch kishining jamiyat, davlat va odamlarga nisbatan munosabati, ular oldidagi majburiyatini ifodalaydi.
Ma'naviy jasorat	Insonning o'z ma'naviyatini o'stirish va yuksaltirishga bag'ishlab, ibrat ko'rsatish.	Har qanday faoliyat bilan ma'naviy jihatdan alohida namuna ko'rsatish.
Ma'naviy ta'sir	Yuksak ma'naviyatni tarbiyalash vositasi.	Muayyan shaxs, jamoa, muayyan guruh, jamiyat, millatda jismoniy barkamollik, ruhiy, axloqiy, ma'naviy yetuklik kabi sifatlar shakllantiriladi.
Ma'naviy vorislik	Milliy-ma'naviy qadriyatlar, urf-odatlar, an'ana, g'oyalar, tajriba, bilimlarning avlodan-avlodga meros bo'lib o'tishi.	Bu jarayon insoniyatning taraqqiyoti davomida to'plangan ma'naviy boyliklarni, yaxlit holda avlodlarga uzatish, kishilarning dunyoqarashi, ma'naviy saviyasi, bilimi va ma'naviyatining boyishiga xizmat qiladi.
Ma'naviy madaniyat	Insonning ma'naviy xususiyat va xislatlari.	Jamiyatning madaniy darajasini aks ettirishga xizmat qiladi.
Milliy ong	Har bir millat yoki elatning uzoq tarixiy taraqqiyoti, turmush tarzi, ma'naviy, diniy e'tiqodi, madaniy rivoji jarayonida shakllangan dunyoqarashi, tafakkuri e'tiqod va ishonch tuyg'ularini ifodalovchi tizim.	Ana shu tufayli insonda milliy ongning mas'uliyat tuyg'usi shakllanadi. U o'zining ma'lum millat vakili ekanini his etgan holda uning manfaatlarini ongli ravishda himoya qiladi va shu yo'lda fidoyilik namunalarini ko'rsatadi.

Jadvalda ifodalanganidek, ma'naviy mental determinantlar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, insonning ruhiyati, ijodiy tafakkuri, ilmiy, badiiy, axloqiy va boshqa qadriyatlarga asoslanadi.

Dissertatsiyaning **“Texnika oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida talabalarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirish printsiplari, mexanizmlari, o'quv faoliyati bosqichlari, konseptual va indikativ modellari o'z aksini topgan.

Talabalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni eksplitsit rivojlantirishda ularni ijtimoiylashtirish va kasbiy tayyorlash implementatsiyasi sodir bo'ladi. Bunda OTTlarida tashkil qilinadigan “Faxriylar bilan uchrashuv”, “Uch avlod

uchrashuvlari”, “Bilimlar kuni”, “O‘qituvchi va murabbiylar kuni” kabi mavzulardagi uchrashuv, debat shakllari ham katta ahamiyatga ega.

Talabalarda ma’naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirishda didaktik jarayonlardagi o‘quv materiallarni tushunish, tushuntira olish, tasvirlash, aniqlash, muhokama qilish, shakllantirish, namoyish qilish, illyustratsiya kabi kategoriyalar yordamida muvaffaq bo‘linadi. Bilim olishga yo‘naltirilgan vazifalar, muammoni yechish, rejalashtirish, tushuntirish, ko‘rsatish, tajribadan o‘tkazish, qo‘llash, o‘qitish, namoyish etish va boshqalar asosida shakllantiriladi.


Anketa savollariga berilgan javoblardan va oliy ta’lim muassasalarida tashkil qilingan mashg‘ulot tahlillaridan aniqlanishicha, talabalarda ma’naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirishga mo‘ljallangan o‘quv kurslaridagi mavzular: globallashuv (67%), inson huquqlari (77%), kasbga yo‘naltirish (78%), vatanparvarlikka oid mavzular taqsimoti (83%) belgilangan. Demak, oliy ta’lim muassasalarida tashkil qilingan mashg‘ulotlarda ma’naviy-axloqiy sifatlarni namoyish etuvchi komponentlar mohiyatini yoritib beruvchi mavzular mazmunan boyitilishiga ehtiyoj mavjud.

Talabalarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirishga mo‘ljallangan mavzular 71% ni tashkil etar ekan, bu ko‘rsatkichni, albatta, yuqori foizga ko‘tarish zarurati yaqqol namoyon bo‘lmoqda.


Talabalarda ma’naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirish uchun didaktik metodlardan tashqari, tarbiyaviy metodlardan ham foydalanish samarali natija berishi kuzatishlarimizdan aniqlandi. Bular: ishontirish, mashq qildirish va mustaqil ishlash, kuzatish, rag‘batlantirish, o‘rnak ko‘rsatish va shaxsiy namuna kabi metodlar samarali ekanligi aniqlandi.

Oliy ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan o‘quv kurslari tahsil olayotgan talabalarda ma’naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirish, ularning siyosiy saviyasining o‘sishi, dunyoqarashini shakllantirishga yo‘naltirilgan. Shu bilan birga, o‘tmishda bo‘lgan va hozirgi kunda bo‘layotgan xalqaro siyosiy voqealarni to‘g‘ri baholash, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy taraqqiyoti muammolariga ongli munosabatda bo‘lishga o‘rgatish uchuntalabalarda ma’naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirish modelini amaliyotga tatbiq qilish ehtiyoji mavjudligi aniqlandi. Ushbu modelning didaktik tizimlarga tatbiq qilinishi talabalarning ta’lim va bilimlarga bo‘lgan ishtiyoqini kuchaytirish, mustaqil dunyoqarash, ish yuritishga o‘rgatish, milliy iftixor va umuminsoniy qadr-qimmat tuyg‘usini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etishi tajribaviy mashg‘ulotlar asosida tasdiqlandi

Talabalarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirishda **qo‘llaniladigan yondashuvlar**: tizimli-kognitiv, maqsadli, uzluksiz, Ona zamin moddiy-ma’naviy va ma’rifiy meroslarini qadrlash, ular bilan faxrlanish, milliy qadriyatlar va ilg‘or tarbiyaviy tajribalar uyg‘unligida o‘z ifodasini topadi. Shuningdek, qadriyatli unsurlarga ustuvorlik berish asosida ishlab chiqilgan indikativ vositachi model asosida OTM talabalarining ma’naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantiruvchi mezonlar takomillashtirildi (1-rasm).



1-rasm. Talabalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni eksplitsit rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirish mexanizmi



2-rasm. Talabalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni eksplitsit rivojlantirish modeli

2-rasmda ifodalanganidek, oliy ta'lim muassasalari talabalarining ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirishda tahlil, baho, bashoratlash va modellashtirish tarbiyaviy jarayonni qamrab oluvchi unsurlar sifatida ishtirok etadi.

OTM talabalarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantiruvchi mezonlarni baholashda ularning ko'rsatkichlari, ifodalanganlik darajasi, dinamizm belgilari, xususiyatlarining tahlili inobatga olindi.

Fikrimizcha, oliy ta'lim muassasalari talabalarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni asosan 7 bosqichda shakllantiriladi va rivojlantiriladi: 1) **bilish** – kelgusi kasbiy faoliyatida deontologik qadriyatlarni egallash; 2) **kasbiy kompetentlikni** rivojlantirish; 3) **e'tiqod** – vatanparvarlik qadriyatlari to'g'risida olgan bilimlarini e'tiqodga aylantirish; 4) **harakat** – e'tiqodni amaliy ishlar orqali namoyon etish; 5) **refleksiya** – kasbiy sohaga aloqador qarorlarni qabul qila olish; 6) **monitoring** – baholash – o'z faoliyatini tahlil qila olish asnosida kelgusidagi kasbiy faoliyatini to'g'ri tashkil qila olish; 7) **stimul** – shaxsiy va kasbiy faoliyati natijasida rag'batga ega bo'lish, kelajakda yetuk mutaxassis bo'lib, Vatan ravnaqiga xizmat qilish hissini shakllantirish.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Talabalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirishda tashkil qilinadigan didaktik jarayonlarni tizimlashtirish samaradorligi**” deb nomlanib, unda talabalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirish modelini amaliyotga tatbiq qilish bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari mazmuni, uning samaradorlik darajasini ko'rsatuvchi ma'lumotlar keltirilgan.

Tajriba-tadqiqot ishlari 2019–2022-yillarda tashkil etilib, sinov maydonlari sifatida I. Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, Jizzax politexnika instituti, Farg'ona politexnika instituti belgilandi.

Respublikamizning texnika oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni eksplitsit rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish jarayoni belgilanib, tadqiqotda jami 739 nafar respondent (698 nafar talabalar, 28 nafar professor-o'qituvchilar, 6 nafar yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosarlari va 7 nafar tyutorlar)ni tashkil etdi (2-jadval).

2-jadval

Tajriba-tadqiqotga jalb qilingan OTMlar va qatnashgan respondent soni

№	OTM nomi	Tajriba-tadqiqotda qatnashgan talabalar soni	Professor-o'qituvchilar soni	Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari	Tyutorlar
1	I.Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti	220	18	4	6
2	Jizzax politexnika instituti	213	16	7	8
3	Farg'ona politexnika instituti	222	17	3	5
	Jami	655	51	14	19
739 nafar respondent					

Tadqiqot dasturi muayyan maqsadga erishishga yo'naltirilgan harakatlarni bajarishning ketma-ketligini o'zida mujassamlashtirdi.

Tadqiqot dasturida belgilangan bosqichlarda talabalarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini eksplitsit rivojlantirish darajasini ko'rsatuvchi mezonlar saralandi (3-jadval) va tajriba mashg'ulotlarida qo'llaniladigan metodlar tizimlashtirildi.

3-jadval

Talabalarning ma'naviy-axloqiy sifatleri darajasini ko'rsatuvchi mezonlar

Talabalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarining shakllanganlik darajasi	Talabalarning ma'naviy-axloqiy sifatleri darajasini ko'rsatish mezonlari
I yuqori daraja	<p>DTS talablarini to'liq amalga oshira oladi. To'liq va har tomonlama mukammal axborotlar, nazariy va amaliy bilimlar mavjud:</p> <p>O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, huquqiy doktrinasi mazmuni va mohiyati xaqidagi nazariy bilimlarga ega bo'lish; ma'naviy-axloqiy sifatleri tarkib toptirishda taqdim qilinayotgan o'quv mavzularini yaxlitlikda idrok etish, o'rganilayotgan materialning g'oyaviy mohiyatini tushunish, voqealar va hodisalar o'rtasidagi aloqadorlikni tasavvur etish, ichki qonuniyatlarini anglash; texnik vositalar, ular bilan ishlash ko'nikma va malakalari;</p> <p>axborot kommunikatsiya vositalari va ulardan foydalanish ko'nikma va malakalari, innovatsion metodlar va ular tavsifnomalari bo'yicha to'liq, mukammal va anglangan bilimlar shakllangan;</p> <p>yuksak ma'naviy-axloq ideallariga tenglashtirilgan deontologik ko'nikmalarga ega, shaxsiy motivatsiya, tashabbus va o'z kasbiga qiziqish mavjud.</p>
